

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.T.15.03 RAQAMLI ILMIY
KENGASH QOSHIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

NAJMIDDINOVA YOQUTXON RUXIDDINOVNA

**AMALIYOTGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIM SHAROITIDA BO‘LAJAK
MUHANDIS-METROLOGLARNING METAPREDMET
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika fanlari)

**PEDAGOGIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление диссертации автореферата доктора
педагогических наук (DSc)**

**Contents of dissertation abstract of the doctor
pedagogical sciences (DSc)**

Najmiddinova Yoqutxon Ruxiddinovna

Amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim sharoitida bo'lajak muhandis-
metrologlarning metapredmet kompetentligini rivojlantirish
metodikasi..... 3

Нажмиддинова Ёкутхон Рухиддиновна

Методика развития метапредметной компетентности будущих
инженеров-метрологов в практико-ориентированном образовании 37

Najmiddinova Yokutkhon

A method for developing meta-subject competence of future metrological
engineers in the context of practice-oriented education..... 75

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 80

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.T.15.03 RAQAMLI ILMIY
KENGASH QOSHIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

NAJMIDDINOVA YOQUTXON RUXIDDINOVNA

**AMALIYOTGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIM SHAROITIDA BO‘LAJAK
MUHANDIS-METROLOGLARNING METAPREDMET
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika fanlari)

**PEDAGOGIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2025.3.DSc/Ped193 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Namangan davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (namdtu.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Asqarova O'g'ulxon Mamashakirovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Abdullayeva Ozoda Safibullayevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Ahmedov Jahongir Axmadovich
texnika fanlari doktori, professor

Abdullayev Alibek Qodiraliyevich
pedagogika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat texnika universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.T.15.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "24" aprel soat 13:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Namangan shahar, Janubiy aylanma yo'li ko'chasi, 17-uy, Tel. (998) 69-234-14-85,(998) 69-234-19-96. e-mail: info@namdtu.uz , Namangan davlat texnika universiteti 15-bino, 1-qavat, ilmiy kengash xonasi)

Dissertatsiya bilan Namangan davlat texnika universitetida Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 162- raqami bilan ro'yxatga olingan). (Namangan shahri, Islom Karimov ko'chasi 12-uy, Tel. (998) 69-234-14-85). e-mail: info@namdtu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "11" aprel kuni tarqatildi.
(2025-yil 13-oktyabrda №69-raqamli reestr bayonnomasi).



Q.M.Xoliqov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, texnika fanlari doktori, professor

X.T.Bobojanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, texnika fanlari doktori, dotsent

J.K.Yuldashev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, dotsent

KIRISH (Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida ta'lim barqaror taraqqiyotni ta'minlovchi asosiy omil sifatida e'tirof etilib, 2030 yilga qadar belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiya va strategiyalarida raqamli hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ko'nikmalariga ega, mehnat bozori talablariga mos, yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. BMTning "2030-yilgacha barcha o'quvchilar va talabalarning barqaror rivojlanishiga ko'maklashish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni egallashlarini ta'minlash" dasturi¹da ham bir qator vazifalar ishlab chiqilgan. Ushbu vazifalarning yechimida kelgusidagi fan tarmoqlarining yangicha yondashuvga asoslangan sifatli ta'lim berish maqsadida o'qitishning innovatsion texnologiyalarini yaratish va takomillashtirish, ta'lim muassasalarini xalqaro indeks va reytinglarga olib chiqish, oliy ta'lim, fan va ishlab chiqarishning o'zaro mustahkam integratsiyasini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda o'lchov texnologiyalari, sifat nazorati, raqamli innovatsiyalar va kaizen metodologiyasi asosida uzluksiz rivojlanish konsepsiyalarini chuqur o'rganish, o'lchov jarayonlarini optimallashtirish, barqaror rivojlanish maqsadlari hamda kompetensiya yondashuvi asosida talabalarda ilmiy-tadqiqot va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, o'lchov jarayonlarida energiya tejamkorligi hamda sifatni ta'minlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan, metrologiya ta'limida amaliy kompetensiyalar - sifat menejmenti, energiya samaradorligini oshirish va resurslarni barqaror boshqarishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda dual ta'lim modellari (ishlab chiqarish va ta'lim jarayoni uyg'unligi), ta'lim-ishlab chiqarish laboratoriyalari, keys-study usullari, muammoli o'qitish metodikasi hamda Kaizen texnologiyasi – ya'ni uzluksiz takomillashuv orqali samaradorlikni oshirish tamoyillari bo'yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, metrologiya sohasida ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqish va ulardan ta'lim jarayonida foydalanish, bo'lajak muhandis-metrologlarda: metapredmet kompetentligini rivojlantirish, interdisiplinar yondashuvlarni o'zlashtirish, zamonaviy standartlar va xalqaro talablarga mos ko'nikmalarni shakllantirish, sifatli o'lchovlarni amalga oshirish malakasini mustahkamlash, bo'lajak metrologlarni tayyorlash orqali global miqyosdagi o'lchov standartlari va sifatni ta'minlash muammolarini hal qilish, universitetlar hamda texnologik institutlar o'lchov jarayonlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar bilan yaqindan hamkorlik qilish kabi yo'nalishlarda maqsadli ilmiy izlanishlarni amalga oshirish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda metrologiya ta'lim tizimi milliy metrologiya standartlari, sifat nazorati va barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiq shakllanmoqda, shuningdek, sanoat rivojlanishi va texnologik yutuqlar ortib borayotgan sharoitda simulyatsiya texnologiyalari, raqamli o'quv platformalari, innovatsion pedagogik metodlar, kompetensiyaga asoslangan o'qitish hamda Kaizen tamoyillaridan samarali foydalanish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. 2030-yilgacha mo'ljallangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini rivojlantirish

¹ <https://www.unesco.org/en/sustainable-development/education/esd-net>

konsepsiyasi²da, jumladan, individual ta'lim trayektoriyalariga asoslangan, talabalarda kreativ fikrlash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o'quv rejalar ishlab chiqish orqali talabalar qiziqishlari hamda kadrlar buyurtmachilari ehtiyojlariga muvofiq ta'lim dasturlarini shakllantirish bo'yicha muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, xususan, kaizen texnologiyasi asosida o'quv jarayonini tashkil etish bo'lajak muhandis-metrologlarda metapredmet kompetentligini rivojlantirishda hal qiluvchi o'rin tutadi. Bunda, bo'lajak muhandis-metrologlarda fanlararo integratsiya, kognitiv mustaqillik, ijodiy fikrlash, kritik tahlil va jamoaviy hamkorlik kompetensiyalarini shakllantirishda amaliyotga yo'naltirib o'qitishga qaratilgan ushbu ilmiy izlanishlar muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son, 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlarini belgilash to'g'risida"gi PF-6079-son Farmonlari, 2020-yil 6-oktabrdagi "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni sanoat bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4851-son qarori, 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son, 2022-yil 28-yanvardagi 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-son Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqotlar Respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovasion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi³. Global miqyosdagi o'lchov standartlari va sifatni ta'minlash muammolarini hal qilishga, sifatni nazorat qilish, o'lchov jarayonlarini optimallashtirish, barqaror rivojlanish maqsadlari hamda kompetensiya yondashuvi asosida talabalarda ilmiy-tadqiqot va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, metrologiya ta'limi va mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar jahonning yetakchi universitetlari, jumladan

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5847 Farmoni, 2019-yil 8-oktabr, Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son. <https://lex.uz/docs/4545884>.

³ Mazkur qism quyidagi manbalar asosida yoritilgan: ESD for 2030 Global Network (October 2022), Sustainable development goals Methodology. Assessing sustainable development indicators against EU objectives and targets (2025), Sustainable development in the European Union (2017), DHS STEM Designated Degree Program List (2020); How Standardized Work Integrates People with Process, John Shook (2020). Productivity Principles From Japan I - The Concept Of Kaizen, Anthony Sanni (2025), Measurement of sustainable development index in China's manufacturing industry based on Er-xiang Dual theory. Quan Zhang etc. (2021), Rethinking the trade-off relationship between innovation quantity and quality: the evidence from public energy R&D programs in South Korea, Dohyoung Kim (2024), Driving Innovation through Energy Efficiency: A Russian Regional Analysis, Alexander Melnik (2021).

Massachusetts Institute of Technology (MIT), Stanford University (AQSh), Technical University of Munich, Physikalisch-Technische Bundesanstalt (PTB) (Germaniya), Delft University of Technology (Niderlandiya), Chalmers University of Technology (Shvetsiya), University of Tokyo, Kyoto University (Yaponiya), Tsinghua University (Xitoy), Yonsei University, KAIST (Janubiy Koreya), Moscow State University, Peter the Great St. Petersburg Polytechnic University (Rossiya) shuningdek, International Bureau of Weights and Measures (BIPM), International Organization of Legal Metrology (OIML), International Organization for Standardization (ISO), National Institute of Standards and Technology (NIST) (AQSh), National Metrology Institute of Japan (NMIJ), National Physical Laboratory (NPL) (Buyuk Britaniya), PTB (Germaniya) kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan amalga oshirilmoqda.

Metrologiya ta'limi va mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha dunyo miqyosida jumladan, quyidagi muhim ilmiy-amaliy yondashuvlar ishlab chiqilgan: Yevropa Ittifoqida sifatni nazorat qilish, o'lchov jarayonlarini optimallashtirish, barqaror rivojlanish maqsadlari hamda kompetensiya yondashuvi asosida talabalarda ilmiy-tadqiqot va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish (Germaniya, Shvetsiya va Niderlandiya); AQShda STEM (Science, Technology, Engineering, Math) yondashuviga asoslangan o'lchov texnologiyalari, sifat nazorati, raqamli innovatsiyalar va kaizen metodologiyasi asosida uzluksiz rivojlanish konsepsiyalari (MIT, Stanford universitetlari); Yaponiyada o'lchov jarayonlarida energiya tejamkorligi, sifatni ta'minlash va kaizen texnologiyasi asosida uzluksiz takomillashtirish tamoyillari (Tokio va Kyoto universitetlari); Xitoyda barqaror rivojlanish va sanoat standartlarini ta'minlashga yo'naltirilgan o'lchov jarayonlarini boshqarish, sifat nazorati, raqamli texnologiyalar va innovatsion yechimlar (Tsinghua universiteti); Janubiy Koreyada o'lchov jarayonlarini optimallashtirish va sifatni ta'minlash bo'yicha innovatsion yechimlar (Yonsei universiteti va KAIST); Rossiyada tabiiy resurslarni boshqarish, energiya samaradorligini oshirish va sifat nazoratini amalga oshirishga qaratilgan fundamental nazariya bilan birga zamonaviy simulyatsiya texnologiyalari (Moskva Davlat Universiteti, Sankt-Peterburg Politehnika Universiteti).

Dunyoda metrologiya ta'limi va mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: metrologik ta'limni kompetensiya yondashuvi asosida takomillashtirish; o'lchov texnologiyalarini raqamli transformatsiya qilish; barqaror rivojlanish maqsadlariga mos metrologik yechimlar ishlab chiqish; kaizen metodologiyasi asosida uzluksiz takomillashtirish tamoyillarini joriy etish; tabiiy resurslarni boshqarish va energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan metrologik tizimlarni yaratish; xalqaro standartlar va talablarga mos mutaxassislarni tayyorlashga oid tadqiqotlar olib borilmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi⁴. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, "kasbiy kompetentlik" va uning o'ziga

⁴ Зеер Э.Ф. Психология профессий: учебное пособие для студентов вузов. 2-е изд., перераб. доп. / Э. Ф. Зеер - М.: Академический Проект; Екатеринбург: Деловая книга, 2003. - 336 с.Лернер. И.Я. Дидактические основы методов обучения. - М.: Педагогика, 1981. - 186с. Абдуллина О. Общепедагогическая подготовка учителя в системе высшего педагогического образования: для пед. специальностей высших учебных заведений. - 2-изд.,

перераб. идоп. -М.: Просвещение, 1990. – 141 с.Бабанский.Ю.К. Оптимизация процесса обучения [Текст] : общедидактический аспект. / Ю.К. Бабанский. - М.: Педагогика. 1977. - 256 с.Белкин А.С. Компетентност. Профессионализм. Мастерство: Монограф. - Челябинск: ОАО «Юж.-Урал.Кн. изд-во», 2004. -176 с. Г.Н. Жуков. Педагогические технологии. — Москва: Академия, 2004. - 287 с. Якиманская И. С. Принципы построения образовательных программ и личностное развитие учащихся // Вопросы психологии. – 1999. – № 3. – С. 64–77. Вербиский, А.А. Компетентностный подход в образовании: проблемы реализации [Текст] /А.А. Вербиский // Международная научно-практическая конф. 17-18 ноября 2005 г. : материалы. -Екатеринбург: Рос. гос. проф. - пед. ун-т, 2005. - Ч. ИВ. - С. 25-27. В.Р. Безрукова. Педагогика. Проективная педагогика. — Екатеринбург: Деловая книга, 1996. - 344 с. А.В. Долженко. Педагогическая психология. - Ростов н/Д: Феникс, 2005. - 320 с. В.А. Сластёнин, И.Ф. Исаев, Е.Н. Шиянов. Педагогика. — Москва: Академия, 2002. - 512 с. Байденко, В.И. Компетентностный подход к проектированию государственных образовательных стандартов высшего профессионального образования / В.И. Байденко. – М.: Исследоват. центр проблем качества подготовки специалистов, 2005. – 114 с. Гришина А.Н. Профессиональная компетентность руководителя школы как объект исследования . - М.: Наука , 2002. -231 с. Зимняя И.А. Ключевые компетенции - новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня; М. - 2003. - № 5. - С.34-42. Кузьмина Н.В. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения, [текст] / Н.В. Кузьмина. - М.: Высшая школа, 1990.-119 с. Кан-Калик, В. А.; Никандров, Н. Д. Педагогическое творчество. - М.: Педагогика, 1990. - 144 с. - ISBN 5-7155-0293-4. Кулешова И. Г. Работы по эмоциональным состояниям и педагогическим технологиям (обзоры и статьи в научных сборниках), публикации ва рефератлар (NBPublish, Azimut). Кулюткин, Ю. Н., Сухобская, Г. С. Ценностные ориентиры и когнитивные структуры в деятельности педагога.- Самара: СГПУ, 2002. - (в серии “Психолого-педагогические исследования”). Маркова А.К. Психология труда учителя, [текст] / А.К. Маркова. - М.: Просвещение, 1993. – 151 с. В. А. Сластёнин, А. И. Мищенко. -Москва: Магистр, 1995. - 192 с Boyatzis, R. E. Primal Leadership: Realizing the Power of Emotional Intelligence. - Boston; New York: Harvard Business School Press, 2002. - 368 p.Amazon author page - <https://www.amazon.com/stores/author/B001IU0N8K> Amazon Case Western profile listing books - <https://case.edu/weatherhead/> Cameron, D. M. More than an Academic Question: Universities, Government, and Public Policy in Canada. -Halifax, NS: Institute for Research on Public Policy, 1991. - 472 p.- ISBN 0-88645-134-5. Ident.: ED345653 (ERIC database entry) Quinn, R. E. Beyond rational management: mastering the paradoxes and competing demands of high performance. - San Francisco, CA: Jossey-Bass Inc., 1988. - 250 p. Marr, D. C. A general theory for cerebral cortex. - PhD thesis, Trinity College, University of Cambridge, 1972. - Cambridge; (Cambridge University repository). ThesisURL-<https://idiscover.lib.cam.ac.uk/permalink/.../> Raven J. Компетентность в современном обществе: выявление, развитие и реализация. Kogito-Tsentr, Moskva, 2002, 396 sahifa. Competence in Modern Society: Its Identification, Development and Release, Unionville NY, 1997 Колмаково. В. И. Project as an umbrella to mold professional competencies in foreign language for specific purposes course <https://www.researchgate.net/publication/338104478>. Позднякова Е.П. Развитие метапредметных компетенций у младших школьников посредством интерактивных технологий: Автореф. дис. ... канд. пед. наук: 13.00.01 / Е.П. Позднякова. – Челябинск, 2010. – 25 с. Т. В. Еремеева. Adsorption of low molecular weight substances by three-dimensional crosslinked polyurethanes, Polymer Science U.S.S.R., 1976, Vol. 18(9) Прокудина Ю.А. Формирование метапредметных знаний старшеклассников в условиях профильного обучения: Автореф. дис. ... канд. пед. наук: 13.00.01 / Ю.А. Прокудина. – Н. Новгород, 2013. – 26 с. Рябинова Е.Н., Марченкова Л.А. К вопросу об актуальности формирования вербальных компетенций студентов технических вузов // Вестник Самарского государственного технического университета. Сер. Психолого-педагогические науки. – № 2(26). – 2015. – С. 163-170. Marchenkova, L. A.Problems of formation of speech competencies in the implementation of distance learning in a technical university // Izvestiya Samarskogo nauchnogo tsentra Rossiyskoy akademii nauk. Sotsial'nye, gumanitarnye, mediko-biologicheskiye nauki.-2022.-№2.-URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/problemy-formirovaniya-rechevyh-kompetentsiy-pri-realizatsii-distantsionnogo-obucheniya-v-tehnicheskome-vuze>.Коробейникова, Н. Н.Коробейникова Н. Н. Психология и педагогика. -Москва: ИНФРА-М, 2017. - 220 с. Орлов, Ю. М.Орлов Ю. М. Психология личности. - Москва: Изд-во МГУ, 1995. - 384 с. Сазонова, З. С.; Чететкина, Н. В. Развитие инженерного мышления - основа повышения качества образования: учебное пособие / МАДИ (ГТУ). - Москва, 2007.- 195 с. Правильное понимание кайдзен - путь к процветанию предприятий / А. С. Селиверстов, В. В. Постнов, Д. Ю. Уткин [и др.]. - Текст : непосредственный // Молодой ученый. - 2019. - № 42 (280). - С. 219-221. - URL: <https://moluch.ru/archive/280/63218/> Солдатова Г. Т. Психология межкультурной толерантности. - Москва: Смысл, 2002. - 312 с. <http://naukovedenie.ru/PDF/166PVN215.pdf> (доступ: 27.08.2025). Allen, I. E. Going the Distance: Online Education in the United States, 2011. - Babson Survey Research Group; Wellesley, MA.-2011.-DOI/URL: nashrga oid sahifada Atkinson, R. C. Entrepreneurial President: Richard Atkinson and the University of California, 1995–2003. - Stanford, CA: Stanford University Press, 2012. Baker, D. P. The Schooled Society: The Educational Transformation of Global Culture. - Stanford, CA: Stanford University Press, 2014. - 360 p. - ISBN 978-0-8047-9047-5. Bok D. Higher Learning. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1986. - 288 p. Brint S. Schools and Societies. - Stanford: Stanford University Press, 1998. - 400 p. Clark B. R. The Higher Education System: Academic Organization in Cross-National Perspective. - Berkeley: University of California Press, 1983. - 336 p. Frank, D. J.; Meyer, J. W. The University and the Global Knowledge Society. — Princeton, NJ: Princeton University Press, 2020. — 182 p. — ISBN 978-0-691-20205-1. Galison P. Image and Logic: A Material Culture of Microphysics.

xosligi, ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqishga O'zbekistonning taniqli olimlarini ilmiy ishlari bag'ishlangan. Bulardan: R.X.Djurayev, A.R.Xodjaboyev, Z.K.Ismoilova, N.A.Muslimov, U.I.Inoyatov, Q.T.Olimov, O'.Q.Tolipov, Sh.S.Sharipov, M.B.Urazova va boshqalarning ishlarida atroflicha yoritilgan. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida bo'lajak mutaxassislar tayyorlashda metapredmetli kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari ishlab chiqish, amaliy tajribalar to'plash kabi masalalarini yechishda salmoqli natijalarga erishildi.

Bo'lajak muhandis-metrologlarni kasbiy faoliyatga tayyorlash mazmuni, ularning metapredmet kompetentligini rivojlantirishning funksional imkoniyatlari va pedagogik shart-sharoitlarini rivojlantirish, ta'lim va ishlab chiqarish korxonalari integratsiyasining alohida jihatlarini ochib beruvchi tadqiqotlar olib borish, ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish integrativ hamkorligi kabi masalalarni hal qilishda bir qator taniqli xorijiy olimlar katta hissa qo'shganlar, jumladan, YE.F.Zeyyer, I.Ya.Lerner, O.A.Abdulina, Yu.K.Babanskiy, A.S.Belkin, G.N.Jukov, I.S.Yakimanskiy, A.A.Verbiskiy, V.S.Bezrukova, A.V.Doljenko, V.A.Slasyonin, V.I.Baydenko, A.A.Verbiskiy, N.A.Grishina, E.F.Zeyer, I.A.Zimnyaya, N.V.Kuzmina, V.A. Kan-Kalik, A.I.Kuleshova, Yu.N.Kulyutkin, A.K.Markova, N.V.Skachkova, V.A. Slasteninar, A.V.Xutorskiy, R.Boyasis, K.Kameron, R.Kuinn, R.Marr, Dj.Raven,

— Chicago: University of Chicago Press, 1997. — 955 p. Austin V. Teacher Education in Canada. — Toronto: OISE Press, 2001. — 214 p. Cameron, D. M. More Than an Academic Question: Universities, Government and Public Policy in Canada. — Halifax (Nova Scotia): Institute for Research on Public Policy, 1991. — XX + 472 p. (Taxtidan kelib chiqqan hisobot) — ISBN 0-88645-134-5. Fisher, D.; Rubenson, K.; Lee, J.; Clift, R.; MacIvor, M.; Meredith, J. "The transformation of the PSE system in British Columbia" // The development of postsecondary education systems in Canada: A comparison between British Columbia, Ontario, and Québec, 1980–2010. — Montreal, QC: McGill-Queen's University Press, 2014. — Pp. 35–121. Tudiver, N. Universities for Sale: Resisting Corporate Control over Canadian Higher Education. — Toronto: James Lorimer & Company Ltd., 1999. — xiv + 248 p. — ISBN 1-55028-690-0. — CAUT seriyasidan; Lorimer Adult kiyomida tavsiya etilgan. Ash, M. G. Gestalt Psychology in German Culture, 1890–1967: Holism and the Quest for Objectivity. — Cambridge: Cambridge University Press, 1995. — xii + 513 p. — ISBN 0-521-47540-6. Bhorat, H. (ed.) Africa's Lions: Growth Traps and Opportunities for Six African Economies. — Washington, DC: Brookings Institution Press, 2019. Colyvas, J. A.; Jonsson, S. "Ubiquity and Legitimacy: Disentangling Diffusion and Institutionalization." — Sociological Theory, 2011, Vol. 29, No 1, pp. 27–53. — DOI: 10.1111/j.1467-9558.2010.01386.x. Dearing, R. (Chair). Higher Education in the Learning Society: Report of the National Committee of Inquiry into Higher Education (The Dearing Report). — London: HMSO, 1997. Ōtsuka, H. Kindai Ōshū Introduction to Modern European Economic History. — Tōkyō: Nihon Keizai Hyōronsha, 1944. — 223 s. (Yapon tilida). Kitamura, K.; Cummings, W. K. "‘Big Bang’ theory and Japanese university reform" // Comparative Education Review, Vol. 16 (June 1972), pp. 303–324. Bleiklie, I.; Henkel, M. (eds.) Governing Knowledge: A Study of Continuity and Change in Higher Education – A Festschrift in Honour of Maurice Kogan. — Dordrecht; New York: Springer, 2005. — XVI, 279 p. — ISBN 978-1-4020-3489-3 (hardcover), 978-90-481-6882-8 (softcover), e-ISBN 978-1-4020-3504-3. — Part of series Higher Education Dynamics, v. 9. — DOI: 10.1007/1-4020-3504-7 Henkel, M. Academic Identities and Policy Change in Higher Education. — London: Jessica Kingsley Publishers, 2000. — ISBN 1-85302-662-X. Djo'rayev R.X. Ta'limda interfaol texnologiyalar. — Toshkent, 2010. — B. 87; 60. Ходжабоев А. Р., Қосимов Ш. У. Амалий касбий таълимни ташкил этиш ва ўтказиш методикаси. Тошкент, 2007. Ismailova Z.K. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning nazariy va eksperimental-metodik asoslari: Diss... ped. fan. d-ri. — T.: 2006. — 345 b. Иноятлов У.И. Теоретические и организационно-методические основы управления контролем качества образования в профессиональном колледже: Дисс. ... докт. Пед. Наук. — Т.: 2003. — 327 с. Олимов Қ.Т., Алимов А.А., Узокова Л.П., Алимов А.Т., Жўраев Х., Жалолова Д.Ф., Мирзаева Ф.Т. Касб таълими методикаси. Дарслик // "Fan va texnologiyalar" нашриёти. — Тошкент, 2016. — 328 бет. Tolipov O'.Q. Oliy pedagogik ta'lim tizimida umummehnat va kasbiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari: Dis. ... ped. fan. dokt. — Toshkent: 2004. — 314 b. Шарипов Ш. С. Ўқувчилар касбий ижодкорлиги узвийлигини таъминлашнинг назарияси ва амалиёти.: Пед. фан. док. ... автореф. -Т.: 2012.-46 б. Уразова М.Б. Бўлажак касбий таълим педагогини лойиҳалаш фаолиятига тайёрлаш технологиясини такомиллаштириш: Пед. фан. докт. ... дисс. -Т., 2016. -260 б. Qo'ysinov O.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy pedagogik ijodkorligini kompetentli yondashuv asosida rivojlantirish texnologiyalari. Monografiya. — T.: "Delta print servis" nashriyoti. 2018.- 156 b. Каримова Н.Н. Касб таълими ўқитувчиларини амалий компетентлигини шакллантириш технологияси. Услубий кўлланма. — Т.: Иқтисодиёт нашриёти, 2012.- 59 б.

A.V. Xutorskoy, V.I. Kolmakova, YE.P. Pozdnyakovoy, YE.V. Yeremeyeva, Y.A.Prokudina, YE.N.Ryabinova, L.A.Marchenkova, N.N.Korobeynikova, Yu.M.Orlov, Z.S.Sazonova, N.V.Postkov, G.T.Soldatova, YE.V.Neborskiy (MDH), I.Allen, R.Atkinson, D.Baker, D.Bok, S.Brint, B.R.Clark, J.Davies, D.Frank, P.Galison (Yevropa); V.Austin, D.Cameron, A.Chan, D. Fisher, N.Tudiver (Kanada) M.Ash, H.Bhorat, T.Brunch, J.Colyvas, J.Davies, J.Dearing (Angliya), O.Hisao, K.Kitamura, T.Masayuki, S.Moriya, K. Okamoto (Yaponiya); R.Bendis, I.Bleiklie, M.Henkellar (Niderlandiya) va boshqalar.

Olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari tahlili natijasida oliy ta'lim tizimida o'qitish jarayonini samarali tashkil etishga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan quyidagi omillarni qayd etish mumkin: ta'lim tizimining tezkor yangilanishi bilan yuz berayotgan o'zgarishlarga javob berishga yetarlicha tayyor bo'lmagan amaldagi tizimi o'rtasidagi ziddiyat; ta'limda metapredmetli yondashuvga asoslangan ta'limning metodik ta'minotning ishlab chiqilmaganligi; amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratish va ehtiyojga asoslangan dasturlarni ishlab chiqish asosida ta'lim jarayonlarini takomillashtirishning yetarlicha ilmiy asoslanmaganligi hamda pedagogik jihatdan to'liq tadqiq qilinmaganligi yechimini kutayotgan bir qator muammolar manbasi bo'lib qolayotganligi tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti AL-5121081266-raqamli "Tuproqqa ishlov beruvchi qishloq xo'jaligi texnikalarning vibratsion mexanika prinsiplariga asoslangan yangi avlod konstruksiyasini ishlab chiqish" amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim sharoitida bo'lajak muhandis-metrologlarning metapredmet kompetentligini rivojlantirish va amaliyotga tadbiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bo'lajak muhandis-metrologlarni metapredmetli kompetentligini rivojlantirishning tarmoqlararo integratsiya tuzilmasini takomillashtirish;

bo'lajak muhandis-metrologlarning metapredmetli kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan tashkiliy-tuzilmaviy modelni ishlab chiqish;

amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim muhitida bo'lajak muhandis-metrologlarni metapredmetli kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish;

bo'lajak muhandis-metrologlarning metapredmetli kompetentligini rivojlantirishning metodik tizimini takomillashtirish;

bo'lajak muhandis-metrologlarni metapredmetli kompetentligini rivojlanganligini baholash mezonlari hamda darajalarini aniqlashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim sharoitida bo'lajak muhandis-metrologlarning metapredmet kompetentligini rivojlantirish nazariyasi va metodikasini takomillashtirish jarayoni belgilanib, pedagogik tajribasini ishlariga Farg'ona politexnika instituti, Jizzax politexnika instituti va Andijon mashinasozlik instituti viloyatlaridagi oliy ta'limning 552 nafar talabalari respondent sifatida ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini amaliyotga yo‘naltirilgan ta‘lim sharoitida bo‘lajak muhandis-metrologlarning metapredmet kompetentligini rivojlantirish mazmuni, shakllari, metodlari, texnologiya va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari Tadqiqotda mavzuga oid ilmiy manbalar, didaktik materiallar, DTS, o‘quv reja va dasturlari, o‘quv-me‘yoriy hujjatlar, darslik va o‘quv-metodik adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish; suhbat, kuzatish, anketa, test, modellashtirish, ekspert baholash, pedagogik tajriba-sinov; tadqiqot natijalarini matematik-statistik qayta ishlash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

oliy ta‘lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari hamkorligini ta‘minlashning ilmiy-metodik asoslari orqali bo‘lajak muhandis-metrologlarni metapredmetli kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi tamoyillarga asoslangan holda korxona va ta‘lim muassasalarining tarmoqlararo integratsiya tuzilmasi takomillashtirilgan;

oliy ta‘lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari talablari asosida bo‘lajak muhandis-metrologlarning metapredmetli kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan amaliyotini interaktiv boshqarishga mo‘ljallangan takomillashtirilgan ta‘limda “Kaizen” texnologiyasi hamda tashkiliy-tuzilmaviy model ishlab chiqilgan;

amaliyotga yo‘naltirilgan ta‘lim muhitida bo‘lajak muhandis-metrologlarni metapredmetli kompetentligini rivojlantirish metodikasi “Brainstorming” (Breyn-shtorm), “5-S”, “5-Nimaga”-“1-Qanday” interaktiv metodlarini ta‘lim va amaliy faoliyat klasteri muhitiga singdirish orqali takomillashtirilgan;

bo‘lajak muhandis-metrologlarning metapredmetli kompetentligini rivojlantirishning metodik tizimi bo‘lajak muhandis-metrologlarning ruhiy-estetik holatini barqarorlashtiruvchi o‘quv-transformatsiya usullarini amaliy o‘zlashtirishning variativ rivojlanish, faol o‘qitish hamda ijodiy mustaqillik bosqichlarida pedagogik-ergonomik talablarga ko‘ra qo‘llash asosida takomillashtirilgan;

texnika oliy ta‘lim muassasalarida bo‘lajak muhandis-metrologlarni metapredmetli kompetentligini rivojlanganligini baholash mezonlari hamkor subyektlarda axborot-uslubiy madaniyatni barqaror rivojlantiruvchi faol ish shakllariga eksperimental motivatsion muhitda muqobil kombinatsiyada ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

amaliyotga yo‘naltirilgan ta‘lim jarayonida bo‘lajak muhandis-metrologlarning metapredmet kompetentligi rivojlantirishga qaratilgan “Standartlashtirish asoslari” nomli darsligi yaratilgan va amaliyotga joriy etilgan;

amaliyotga yo‘naltirilgan ta‘lim jarayonida bo‘lajak muhandis-metrologlarning metapredmet kompetentligi rivojlantirish bo‘yicha “Bo‘lajak muhandis-mexaniklarni kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning ilmiy metodik asoslari” nomli monografiya va Ta‘limda “Kaydzen” texnologiyasi hamda “Sertifikatsiyalash asoslari va sifat menejmenti” nomli o‘quv metodik va o‘quv qo‘llanmalar kabi tashkiliy didaktik ta‘minot ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan;

texnika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak muhandis-metrologlarini amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim sharoitida metapredmet kompetentligini shakllantirishga qaratilgan hamda mustaqil ta'lim olish jarayonini takomillashtirishni o'z ichiga olgan "Gidromeliorativ mashina va jihozlaridan foydalanish va ularga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha individual ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlarini loyihalash" hamda "Qurilish mexanikasi" nomli elektron o'quv qo'llanma ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik statistika metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati taklif etilgan texnologiya, model, yaratilgan dasturiy mahsulot, ya'ni o'qitishning zamonaviy texnologiyalaridan texnika oliy ta'lim muassasalarida o'qitish sifati va samaradorligini oshirish, ta'lim jarayonlarini amaliyotga yo'naltirilgan yondashuv asosida tashkil etish, o'quv reja va dasturlarini takomillashtirish ta'lim va amaliy faoliyat subyektlari klasterli muhitida professional ta'lim, oliy ta'lim va ishlab chiqarish korxonalari integratsiyasini ta'minlash, bo'lajak muhandis-metrologlarini metapredmet kompetentligini shakllantirishda foydalanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot ishi doirasida ishlab chiqilgan amaliyotga yo'naltirilgan o'quv dasturlari, amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi va ulardan foydalanish bo'yicha tavsiyalardan respublikamizdagi oliy ta'lim muassasalari uchun o'quv dasturlari, o'quv va metodik qo'llanmalar ishlab chiqishda; oliy ta'lim muassasalarida umumkasbiy fanlarni o'qitish jarayonida; umumkasbiy fan o'qituvchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bo'lajak muhandis-metrologlarni metapredmetli kompetentligini amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida rivojlantirishning nazariy asoslari yuzasidan ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflar asosida:

oliy ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari hamkorligini ta'minlashning ilmiy-metodik asoslari orqali bo'lajak muhandis-metrologlarini metapredmetli kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi tamoyillarga asoslangan holda korxona va ta'lim muassasalarining tarmoqlararo integratsiya tuzilmasi takomillashtirishga doir takliflardan "Standartlashtirish asoslari" fanidan darslik yaratilgan va mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-avgustdagi 391-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan №391320-sonli guvohnomasi). Natijada, yaratilgan darslik bo'lajak muhandislarni metapredmetli kompetentligini rivojlantirishga xizmat qilgan;

oliy ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari talablari asosida bo'lajak muhandis-metrologlarning metapredmetli kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan bo'lajak muhandis-metrologlar amaliyotini interaktiv boshqarishga

mo'ljallangan takomillashtirilgan "Bo'lajak muhandis-mexaniklarni kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning ilmiy metodik asoslari" nomli monografiya hamda tashkiliy-tuzilmaviy model ishlab chiqishga doir takliflardan "Sertifikatlashtirish asoslari va sifat menejmenti" nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqilgan va mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-avgustdagi 391-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan №-429185-sonli guvohnomasi). Natijada, ishlab chiqilgan monografiya va o'quv qo'llanma bo'lajak muhandis-metrologlarni metapredmetli kompetentligini rivojlantirishga xizmat qilgan;

amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim muhitida bo'lajak muhandis-metrologlarni metapredmetli kompetentligini rivojlantirish metodikasi Brainstorming "Breyn-shtorm", "5-S", "5-Nimaga"- "1-Qanday" interaktiv metodlarini ta'lim va amaliy faoliyat klasteri muhitiga singdirish orqali takomillashtirishga doir takliflardan ta'limda "Kaizen" texnologiyasi o'quv-metodik qo'llanma ishlab chiqilgan va mazmuniga singdirilgan (Namangan muhandislik qurilish institutining 2025-yil 4-apreldagi 4-sonli Ilmiy kengash qarori) Natijada, ishlab chiqilgan o'quv-metodik qo'llanma bo'lajak muhandis-metrologlarni metapredmetli kompetentligini rivojlantirishga xizmat qilgan;

bo'lajak muhandis-metrologlarning metapredmetli kompetentligini rivojlantirishning metodik tizimi bo'lajak muhandis-metrologlarning ruhiy-estetik holatini barqarorlashtiruvchi o'quv-transformatsiya usullarini amaliy o'zlashtirishning variativ rivojlanish, faol o'qitish hamda ijodiy mustaqillik bosqichlarida pedagogik-ergonomik talablarga ko'ra qo'llash asosida takomillashtirishga oid takliflardan "Gidromeliorativ mashina va jihozlaridan foydalanish va ularga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha individual ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlarini loyihalash" hamda "Qurilish mexanikasi" fani bo'yicha multimediyali elektron o'quv qo'llanmalar ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligi №-DGU-08927-sonli, №-DGU-14569-sonli guvohnomalar). Natijada, mazkur o'qitish texnologiyalari va baholash mezonlari talabalarni kasbiy tayyorgarlik darajalarini aniqlashga va ta'lim sifatini oshishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 42 ta ilmiy-uslubiy ish, jumladan, 1 ta monografiya va 1 ta darslik, 2 ta o'quv qo'llanma, 1 ta o'quv-metodik qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 22 ta maqola, shundan 14 tasi xorijiy va 8 tasi respublika jurnallarida chop etilgan hamda 2 ta Intellektual mulk agentligidan DGU guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 232 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi tahlil etilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obykti hamda predmeti aniqlangan, tadqiqot metodlari, ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ishonchliligi va amaliyotga joriy etilishi yoritilgan, nazariy va amaliy ahamiyati, e'lon qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim sharoitida bo'lajak muhandis-metrologlarning metapredmet kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida metapredmet yondashuv ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili, ilmiy manbalarda metapredmet kompetentlik va metapredmet kompetensiya” tushunchalarining mohiyati va mantiqiy jihatdan talqini hamda amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim - bo'lajak muhandis-metrologlarni metapredmet kompetentlikni rivojlantirish sharti haqida fikr yuritilgan.

Mamlakatimizda zamonaviy yengil sanoat, mashinasozlik, mashina va mexanizmlarini keng qo'llash va joriy etish bo'yicha strategik vazifalarni samarali yechishga qodir, metrologiya va standartlashtirish sohalari uchun malakali, raqobatbardosh metrologlarni tayyorlash orqali metrologiya va standartlashtirish sohasidagi muammolarni hal qilish mumkin. Hozirgi kunda texnika va texnologiyaning kun sayin rivojlanib borishi, bilimlarning tezlik bilan yangilanishi bo'lajak muhandis-metrologlarni zamonaviy sharoitlarga moslashish ko'nikmasiga ega bo'lishi hamda yangi bilimlarga intilishini talab etadi.

Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy ta'lim texnologiyalari, xususan, ta'limda metapredmet yondashuv, modulli o'qitish, dasturlar hajmini baholashning kredit tizimini jadal qo'llash ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Metapredmetli yondashuv ta'limini tashkil etishning mutlaqo yangi yo'nalishi, aynan kasbiy masalalar va muammolarni yechishning mantiqiy ketma-ketligini taqozo etadi. Metapredmetli yondashuv o'z mazmunida bugungi kunda ta'limda yuz berayotgan innovatsion jarayonlarni mujassam etadi. U rivojlangan mamlakatlarda qabul qilingan ta'lim standartining umumiy konsepsiyasiga muvofiq bo'lib, ta'lim mazmunini qayta qurish va uning sifatini nazorat qilish tizimiga, ya'ni kompetentlik tizimiga o'tish lozimligini ko'rsatadi. Ushbu metodologik asosga tayanadigan holda tadqiqotning quyidagi vazifalari shakllantirildi:

- Oliy ta'lim muassasalarida umumiy ta'lim jarayonida metapredmetli mazmun, metapredmetli kompetensiyalar va metapredmetli yondashuvning ahamiyatiga oid mavjud nuqtai nazarlar va metodologik pozitsiyalarni tahlil qilish;

- Metapredmetli yondashuvning asosiy tushunchalarini aniqlash, ularning mazmun-mohiyatini ilmiy jihatdan ochib berish hamda ularga kontent-tahlil orqali tizimli yondashish;

- Metapredmetli yondashuv yuzasidan yetakchi oliy ta'lim muassasalari ma'muriyatining nuqtai nazarlari va pozitsiyalarini tahlil qilish, ularni O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standarti (DTS) talablari bilan uyg'unlashtirish hamda tizimni tashkil etuvchi asosiy tushunchalar doirasida shaxsiy pozitsiyani shakllantirish.

Umumiy ta'limni rivojlantirishning innovasion strategiyalari ilmiy-tadqiqot institutining ilmiy maktabi olimlari, xususan N. V. Gromiko fikricha, "metapredmetli mazmun" tushunchasi muayyan o'quv faniga xos faoliyat bilan chegaralanmaydi, balki har qanday fan doirasida ta'limni amalga oshirishga xizmat qiluvchi universal faoliyatni ifoda etadi. Hozirgi vaqtda "metapredmetli mazmun" tushunchasining rasmiy ravishda qabul qilingan ta'rifi mavjud emas. Mazkur tadqiqotning maqsadi "metapredmetli yondashuv" tushunchasining mohiyatini ochib berishdan iborat.

Metapredmet so'ziga turlicha ta'riflar, yondashuvlar mavjud. Xususan, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"da quyidagicha talqin etilgan: "Meta" (yunoncha - «μετα») atamasi – «ortida», «keyin», «so'ng», «ketidan», «ustida», «yuqorida» ma'nolarni bildiradi, va boshqa tizimlarni tavsiflash yoki tadqiq qilish uchun xizmat qiladigan tizimlarni belgilash uchun foydalaniladi masalan: "metanazariya", "metatil", "metapredmet".

Pedagogik nuqtai nazardan "metapredmetlilik" bu yangi yondashuv bo'lib, ushbu umumiy, universal kompetensiyalarni shakllantirishga yordam beradi. Metapredmetlilik tushunchasining mohiyati - bu bo'lajak muhandis-metrologlarda turli o'quv fanlari va hayotiy vaziyatlarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan faoliyatning universal usullarini shakllantirishga qaratilgan ta'limdagi integrativ yondashuvdir. "Yondashuv" tushunchasi ma'lum bir g'oya yoki pedagogik prinsipga asoslangan, bilimlarni konseptual tarzda tuzish va ularni amaliyotga tatbiq etish usuli sifatida qaraladi. Pedagogik amaliyotda turli yondashuvlar bir-birini istisno qilmaydi; ular bo'lajak muhandis-metrologlarni faoliyatining turli jihatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Metapredmet yondashuvning maqsadi – ta'lim mazmunining moslashuvchanligini ta'minlash hamda individual o'quv trayektoriyasi asosida o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish orqali ta'lim oluvchilarda metapredmet natijalar, ya'ni regulativ (maqsad qo'yish, rejalashtirish, o'z faoliyatini nazorat va baholash), kognitiv (tahlil qilish, umumlashtirish, modellashtirish, axborot bilan ishlash) va kommunikativ (hamkorlik, muloqot, fikrni asoslash) universal o'quv faoliyatlarini shakllantirish, shuningdek, ularning individual ehtiyojlari va boshlang'ich tayyorgarlik darajasiga muvofiq shaxsning integrativ rivojlanishi uchun zarur didaktik shart-sharoitlarni yaratishdan iborat(1-rasmga qarang).


Metapredmetli yondashuv aniq fanlar chegarasidan tashqariga chiqib, talabalarda olamni yaxlit idrok etish va uni kompleks tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Bo'lajak muhandis-metrologlarning metapredmetli kompetenlik deganda, ularning turli predmet sohalaridan olingan bilimlarni integratsiyalash asosida metapredmetli bilimlarni o'zlashtirishi, (bilish, tartibga solish va kommunikasion) sohalarga xos metapredmetli kognitiv faoliyati usullarini uyg'unlashtirish orqali umumiy (universal) o'quv harakatlarini shakllantirishga qaratilgan integrativ qobiliyatlari nazarda tutiladi.

Bajarilgan tadqiqot asosida metapredmetli yondashuvning mohiyati va mazmunini ochib beradigan quyidagi natijalar oldik:

Metapredmetli yondashuv - ta'lim jarayonida predmetli kognitiv faoliyatning muayyan fan doirasidan chiqib, undan yuqoridagi metodologik darajaga ko'tarilishini

ta'minlaydigan innovasion pedagogik konsepsiya sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur yondashuv asosida bo'lajak muhandis-metrologlarda metapredmetli natijalar rivojlanadi. Ularning mohiyati, bir tomondan, atrof-olam, narsalar va hodisalar, tabiat va jamiyatning fundamental qonunlarini yaxlitlik va bir butunlikda anglash (ob'yektiv yo'nalish), ikkinchi tomondan esa, shaxsning o'z-o'zini anglashi, individual qobiliyatlari va iste'dodlarini rivojlantirish (sub'yektiv yo'nalish) imkoniyatlari bilan tavsiflanadi.



1-rasm. Korxona va ta'lim muassasalarining tarmoqlararo integratsiya tuzilmasi

Metapredmet yondashuv bo'lajak muhandis-metrologlarda butun hayot davomida ta'lim olishga tayyorlash maqsadida universal o'quv faoliyatlarini shakllantirishga yo'naltiriladi va ularga kasbiy kompetensiyalarni mustaqil ravishda yangilash va rivojlantirish imkonini beradi.

Metapredmetli yondashuv nazariyasi va amaliyoti bo'yicha mahalliy va xorijiy olimlarning tadqiqotlarini mazmunli tahlil qilish hamda asosiy tushunchalarni umumlashtirib oliy ta'limda metapredmetli yondashuv tushunchasini joriy etish imkonini berdi. Biz tomonimizdan metapredmetli yondashuvga quyidagicha ishchi ta'rif berildi:

Oliy ta'limda metapredmetli yondashuv – shaxsning integral sifatleri majmuasi bo'lib, u mutaxassisga jamiyatda qabul qilingan me'yor va me'yorlar asosida kasbiy funksiyalarni samarali bajarishga imkon beruvchi innovasion bilimlar tizimi,

universal faoliyat usullari va mustaqil rivojlanish trayektoriyasini aniqlaydi va ular yordamida o'zini shaxsiy (kasbiy) trayektoriyasini yaratadi.

Tadqiqot ishida bo'lajak muhandis-metrologlarni metapredmetli kompetentligining quyidagi tuzilmaviy komponentlari aniqlandi (qadriyatiy, faoliyatiy, shaxsiy-refleksiv) va takomillashtirildi.

Qadriyaviy komponent (lot. valor - qadriyat) - shaxsning madaniyat, fan va faoliyat qadriyatlarini anglash hamda ularni qabul qilishini; o'z kasbiy faoliyatining ijtimoiy ahamiyatini idrok etishini; kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirishga yo'nalganligini qamrab oladi.

Faoliyatiy komponent (lot. actio - faoliyat) - universal o'quv-kasbiy va kognitiv harakatlarni o'zlashtirish, loyihalash madaniyatiga ega bo'lish, ijodiy kasbiy faoliyatga tayyorlik, kasbiy va shaxsiy tajribani tanqidiy qayta tahlil qilish qobiliyati, kasbiy faoliyati natijalarini qayta ishlash, kasbiy faoliyatni optimallashtirish bo'yicha dasturiy mahsulotlar yaratishdagi faolligi va ulardan amaliy foydalanish, bajarilgan amaliy ish natijalarini mavjud talablarga muvofiq rasmiy hisobotlar, ishlanmalar ko'rinishida taqdim etish, zarur hollarda shaxsiy faoliyat yo'nalishini o'zgartirishga tayyorlikni qamrab oladi.

Shaxsiy-refleksiv komponent (lot. reflexio - "o'zini anglash") - shaxsning o'zini o'zi faollashtirishi, erkin va mustaqil faoliyat yuritishi, shaxsiy faoliyatni tartibga solishi, o'zini anglash va takomillashtirishi, shuningdek, shaxsiy imkoniyat va salohiyatni namoyon etishga qaratilgan individual qobiliyatlarni rivojlantirishni qamrab oladi.

Dissertatsiyaning **“Amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim sharoitida bo'lajak muhandis-metrologlarning metapredmet kompetentligini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari va shart-sharoitlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim sharoitida bo'lajak muhandis-metrologlarning metapredmet kompetentligini rivojlantirish tizimi, amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim sharoitida bo'lajak muhandis-metrologlarning metapredmet kompetentligini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari hamda amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim sharoitida bo'lajak muhandis-metrologlarning metapredmet kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi keltirilgan.

Ta'lim sifatini oshirish va uni bozor iqtisodiyoti ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirish, avvalo, ta'lim jarayonida metapredmet kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan samarali o'qitishni talab etadi, hususan ta'limni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri bu ta'limni insonparvarlashtirish, uzluksizliklashtirish, integratsiyalash, intensivlashtirish, standartlashtirish, individuallashtirish g'oyalarini amalga oshirish hisoblanadi.

Didaktik tizim –ta'lim jarayonini tashkil qilish va uni samarali amalga oshirish uchun ishlatiladigan nazariy konsepsiya, u ta'limning barcha tarkibiy qismlarini integratsiyalaydi. Bo'lajak muhandis-metrologlar metapredmet kompetentligini rivojlantirish didaktik tizimining tuzilmasi quyidagilarni nazarda tutadi: bo'lajak muhandis-metrologlar yuqori kasbiy-amaliy kompetentlikka erishishga yo'naltirilgan ustuvor maqsadlar; kasbiy-amaliy kompetentlikning tarkibiy qismlarini o'zlashtirishga qaratilgan omillar, tamoyillari, didaktik shart-sharoitlar, ta'lim jarayonini tashkil etishning auditoriya va auditoriyadan tashqari shakllari, malaka

talablar (umumkasbiy fanlar) mazmuni; amaliyotga yo'naltirilgan pedagogik jarayonni amalga oshirish samaradorligini ta'minlaydigan ta'lim metodlari, usullari didaktik vositalari (axborot texnologiyalari), nazorat qilish va baxolash maqsadlarga muvofiq erishilgan o'zgarishlarni tavsiflovchi natija.

Shu nuqtai nazardan, bo'lajak muhandis-metrologlarning metapredmet kompetentligi tushunchasi, uning mazmun-mohiyati va tuzilmaviy-mazmuniy komponentlarini aniqlash jarayoni ularni kasbiy tayyorlashda ish beruvchilar bilan ijtimoiy hamkorlikni samarali yo'lga qo'yish, metapredmet kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini belgilash, shuningdek, amaliyotga yo'naltirilgan ta'limning boshqa ta'lim paradigmalariga nisbatan farq qiluvchi muhim xususiyatlarni aniqlash imkonini berdi.

Amaliyotga yo'naltirilgan ta'limning ushbu muhim xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1) aniq maqsad qo'yish – uning asosida iqtisodiy ehtiyojlar va ish beruvchilar talablariga va takliflariga muvofiq, bo'lajak muhandis-metrologlarni muayyan kasbiy faoliyatga tayyorlash vazifasi yotadi.

2) ijtimoiy hamkorlik – ta'lim muassasalari faoliyatiga iqtisodiy sohalar vakillari, bevosita ish beruvchilar, iste'molchilar hamda ta'lim natijalaridan manfaatdor tashkilotlarning jalb etilishi orqali ta'minlanadi.

3) amaliyotga yo'naltirilgan o'qitish shakllari ustuvorligi – ta'lim jarayonida aniq standartlar, standartlashtirilgan ko'nikma va malakalar hamda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan amaliyotga yo'naltirilgan mashg'ulotlar birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

Amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim - talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish asosida ularning tahliliy, kommunikativ va refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim turidir. Mazkur ta'lim jarayonida nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy mashg'ulotlar ustuvor ahamiyatga egadir.

Ta'lim dasturlari ijtimoiy hamkorlar - ish beruvchilar, sohaviy mutaxassislar va ekspertlar ishtirokida ishlab chiqiladi hamda bevosita ishlab chiqarish amaliyotida sinovdan o'tkaziladi. Shu orqali, amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim nafaqat nazariy tayyorgarlikni ta'minlaydi, balki bo'lajak muhandis-metrologlarni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ishlab chiqarish jarayoniga moslashish va mehnat bozori talablariga javob bera olish qobiliyatini rivojlantiradi.

Amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim sharoitida bo'lajak muhandis-metrologlarning metapredmet kompetentligini rivojlantirish oliy ta'lim muassasalarida, xususan, 60711300-“Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti” ta'lim yo'nalishi talabalari uchun nazariy tayyorgarlik va amaliy jarayonlarni uyg'unlashtirgan holda amalga oshiriladi. Bu jarayonda individual o'quv-ishlab chiqarish, malakaviy va diplom oldi amaliyotlar ta'limning asosiy tarkibiy qismi sifatida qo'llanilib, bo'lajak muhandis-metrologlarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, metapredmet kompetentligini rivojlantirish jarayonida bo'lajak muhandis-metrologlarning faqat mavjud bilim va tajribasiga tayanish yetarli emasligi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ijodiy-tahliliy faoliyat, integratsiyaviy yondashuv va refleksiv amaliyot orqali ularning amaliy ko'nikmalari, kasbiy malakalari va multidissiplinar fikrlash qobiliyatlari

chuqur rivojlantiriladi. Bu esa bo'lajak mutaxassislarda muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, samarali yechimlarni ishlab chiqish, jamoaviy hamkorlik va innovasion fikr yuritish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot ishini olib borish jarayonida biz tomonimizdan amaliyotni interaktiv boshqarishga mo'ljallangan Kaizen texnologiyasining konseptual modelini pedagogik loyihalash asosida shakllantirildi (2-rasmga qarang). Taklif etilayotgan modelni oliy ta'lim jarayonida qo'llash talabalari, xususan pedagogik ijodkorlik ta'lim jarayonida qo'llaniladigan mavjud o'qitish shakllari, metodlari, tamoyillari va vositalarini takomillashtirish yoki ular asosida yangi pedagogik usul va texnologiyalarni ishlab chiqish orqali namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, pedagogik loyihalash nazariyasi ta'lim jarayonini tizimli va samarali tashkil etish imkoniyatini yaratadi hamda talaba va o'qituvchi faoliyatining o'zaro uyg'unligini ta'minlaydi.

Pedagogik loyihalash ta'lim jarayonida yuzaga keladigan pedagogik muammolarni hal etish uchun ilmiy asoslangan yondashuvlarni belgilaydi hamda qator bosqichlarda amalga oshiriladi. Ushbu jarayon, xususan, modellashtirish, loyihalash va konstruksiyalash bosqichlarini qamrab oladi.


Pedagogik loyihalashning mazkur uch bosqichli tizimi bo'lajak muhandis-metrologlarda metapredmet kompetentlikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu bosqichlar orqali ta'lim jarayoni tizimli tashkil etilib, bo'lajak muhandis-metrologlarda nazariy bilimlarni amaliy masalalar bilan uyg'unlashtirish, ijodiy va tanqidiy fikrlash hamda innovasion yechimlar topish ko'nikmalari shakllantiriladi.

Modellashtirish - pedagogik muammolarni tahlil qilish va ularning yechimlarini model orqali vizuallashtirish jarayoni. Asosiy komponentlari: (muammoni aniqlash, maqsad va vazifalarni belgilash, model strukturasini ishlab chiqish hamda prognozlash va tahlil qilish).

Loyihalash - model asosida pedagogik jarayonni rejalashtirish va qo'llaniladigan metod, shakl va vositalarni aniqlash.

Konstruksiyalash - loyiha elementlarini amaliy tarzda tatbiq qilish va pedagogik yechimlarning samaradorligini ta'minlash bosqichidir. Shu asosda biz oliy ta'lim tizimida pedagogik loyihalash ustida ishlashning asosiy bosqichlari tuzilmasini ishlab chiqdik. Pedagogik loyihalashning har bir bosqichi batafsil ishlab chiqilish va asosli himoyani talab qiladi. Barcha bosqichlar birdek muhim bo'lib, ular bo'lajak muhandis-metrologlarda qadriyatlar, ta'lim olish me'yorlari va yo'nalishlarni shakllantirishga hamda kommunikativ va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan ta'lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Qobiliyatlarni bo'lajak muhandis-metrologlar o'quv natijalari va amaliy tajribalar asosida egallaydilar.

Pedagogik loyihalash faoliyatining samarali amalga oshishi har bir bosqichni maqsadga muvofiq usul va uslublar bilan kompleks ta'minlashga bog'liq. Dastlabki bosqichda muammo uning tarixiy konteksti hamda ta'lim tizimi va mehnat bozorining zamonaviy talablari nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Ob'yekt yoki predmetning kelgusidagi holati va uni loyihalash usuli bo'yicha maqbul tasavvurlarni shakllantirish uchun asoslar izlashni o'z ichiga olgan konseptuallashtirish alohida ahamiyatga ega. Bu jarayonda strategik yo'nalishlar aniqlanadi, chunki strategik maqsadning belgilashi uning noaniqligini bartaraf etish va samarali yechim vositalarini to'g'ri tanlash imkonini beradi.



2-rasm. Amaliyotni interaktiv boshqarishga yoʻnaltirilgan “Kaizen” texnologiyasining konseptual modeli

Loyihani joriy etish bosqichida ishlab chiqilgan modeldan foydalaniladi va u pedagogik amaliy muhitni transformatsiya qilish qobiliyatini rivojlantirishda qo'llaniladi. Pedagogik loyihani joriy etish jarayonida loyihalash metodlari bosqichma-bosqich mustahkamlanadi. Shuningdek, tanlangan pedagogik texnologiya va uni amalga oshirish shart-sharoitlari ham ushbu bosqichda hal etiladi.

Loyihani ekspert baholash – bu loyihaning yaratilgan shaklini sohaviy mutaxassislar hamda uni amalda joriy etishdan manfaatdor shaxslar tomonidan tekshirish jarayonidir. Ekspertlar tomonidan baholashtan so'ng, loyihaga zaruriy tuzatishlar kiritiladi.

Pedagogik loyihalash asosiy vazifasi sifatida ta'lim tizimini takomillashtirish va sifatli ta'limni ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlarni aniqlaydi, shuningdek, uning funksiyalariga (prognostik, proyektiv, tashkiliy, baholash, nazorat, tahlil) ham tegishli o'zgartirishlar kiritiladi.

Pedagogik loyihalashdagi kamchiliklar aniqlangandan so'ng, o'qituvchi loyihani qayta ko'rib chiqadi, tahrir qiladi va takomillashtiradi, so'ngra uni amalda qo'llash bo'yicha qaror qabul qiladi.

Uchinchi bosqich – refleksiya bo'lib, u loyihaning g'oyasi, tashkil etilishi va natijalari bo'yicha o'qituvchining va talabaning o'zini o'zi, o'z faoliyatini ijodiy tahlil qilish va tushunishini qamrab oladi. Loyihalash jarayonida refleksiya muhim ahamiyatga ega bo'lib, internet-saytlar foydalanuvchilari va tarmoq ta'lim hamjamiyati blogerlari fikricha, o'zlarining xususiy pedagogik loyihalarini yaratishda refleksiya bosqichini o'tmasdan, samarali natijalarga erishib bo'lmaydi. Shuningdek, ta'lim faoliyatini samarali tashkil etish va unga tuzatishlar kiritish muammosi uning tushunish va anglash bilan uzviy bog'liqdir.

Refleksiya deyilganda, natijalarni qayd etish va uning samaradorligini oshirish maqsadida amalga oshirilgan faoliyatni tahlil qilish tushuniladi. Refleksiyaning asosiy vazifasi – faoliyatning komponentlarini (ma'nosi, turlari, usullari, muammolari, ularni yechish yo'llari, olingan natijalar va boshqalar) aniqlash va tushunishdan iborat. Shuning uchun pedagogik loyihani ishlab chiqishda refleksiya bosqichi zarur bo'lib, u kelgusida loyiha ustida ishlashda o'z vaqtida zarur tuzatishlarni kiritish imkonini beradi.

Loyihadan keyingi bosqichda o'qituvchining faoliyati va kasbiy sifatlarini baholash maqsadida ishlab chiqilgan model aprotatsiyadan o'tkaziladi. Aprotatsiya ilmiy-tadqiqotning asoslari va natijalarini tanqidiy va kompetent baholash, uning haqqoniyligini aniqlashni o'z ichiga oladi. Rasmiy aprotatsiya ma'ruza, muhokama yoki munozara shaklida o'tkazilishi mumkin, ekspertlar va mutaxassislar sifatida sohaning yetuk olimlari ishtirok etadilar.

Loyihani ishlab chiqishda biz ayni jarayonning ta'lim tizimidagi va mehnat bozoridagi aniq o'zgarishlarga bog'liqligi hamda uzluksiz tizimli rivojlanishini hisobga oldik.

Amaliyotni interaktiv boshqarishga yo'naltirilgan "Kaizen" texnologiyasining konseptul modeli ishlab chiqishda biz ishni ta'lim jarayonidagi yondashuvni tanlashdan boshladik. Alohida ilmiy kategoriya sifatida, yondashuv nafaqat har qanday pedagogik nazariyani, balki amaliyotni ham shakllantirish asosi hisoblanadi: aynan yondashuv o'qitish, tarbiyalash, ta'lim tamoyillari va metodlarini shakllantirish

asosida yotadi. Ta'limni rivojlanishining hozirgi zamon bosqichida o'qitish yakuni ta'limni isloh qilishdagi ikki yondashuvga bevosita bog'liq:

1) bo'lajak muhandis-metrologlar shaxsini shakllantirishda yo'naltirilgan gumanistik yondashuv;

2) amaliyotga yo'naltirilgan metapredmetli yondashuv.

Ushbu yondashuvlar o'zaro qarama-qarshi emas, balki bir-birini to'ldiruvchi xarakterga ega bo'lib, bo'lajak muhandis-metrologlarning shaxsiy sifatleri va metapredmet kompetentligini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. Amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim oliy ta'lim davlat ta'lim standartlarida (OTDTS) nazarda tutilgan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillari bilan uyg'unlashgan holda amalga oshiriladi. Bu esa pedagog-tadqiqotchining o'qitish uslubini qayta ko'rib chiqishi, ya'ni an'anaviy avtoritar uslubdan shaxsga yo'naltirilgan, hamkorlik va interaktivlikka asoslangan uslubga transformatsiya qilish ehtiyoji bilan bevosita bog'liqdir.

Bo'lajak muhandis-metrologlarni metapredmet kompetentligini rivojlantirishda amaliyotga yo'naltirilgan tuzilmaviy modelini ishlab chiqish jarayonida eng samarali pedagogik texnologiyalarni tanlash hamda ularni o'quv jarayoniga uyg'unlashtirish vazifasi belgilab olindi. Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarida bo'lajak muhandis-metrologlarning metapredmet kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida faol va interfaol o'qitish shakllaridan samarali foydalanish, ularni auditoriyadan tashqari ta'limiy faoliyat turlari bilan uyg'unlashtirish tavsiya etiladi.

Amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim sharoitida bo'lajak mutaxassislarni metapredmet kompetentligini rivojlantirishning pedagogik tuzilmasi va shart-sharoitlarini ishlab chiqish muammosini hal etish, ijtimoiy hamkorlik doirasida barcha darajalarda maqsadga muvofiq va o'zaro kelishilgan tarzda faoliyat yuritishni talab etadi. Bu jarayonda umumkasbiy fanlar o'qituvchilari, oliy ta'lim muassasasi ma'muriyati va professor-o'qituvchilari, shuningdek "OTM - ish beruvchilar" hamkorligi va o'qitish jarayonidagi o'zaro hamkorlik birligi muhim ahamiyatga ega.

Fan oldida turgan muhim vazifalardan biri - ta'lim jarayonida didaktik vositalarning turli shakl va usullaridan samarali foydalanishdir. Bo'lajak muhandis-metrologlarning metapredmet kompetentlikni rivojlanganligining yuqori darajada bo'lishiga erishish mohiyatini yorituvchi didaktik tizim samaradorligiga chambarchas bog'liq. Didaktik tizimni muvoffaqiyati va uning samaradorligi bog'liq bo'lgan shart-sharoitlar, omillar, holatlar, chora-tadbirlar majmui sifatida taqdim etiladi. Didaktik tizim faoliyatini takomillashtirish muammolari bilan bog'liq bo'lgan zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda katta qiziqish uyg'otadigan jihatlardan biri bu didaktik shart-sharoitlarni aniqlash, asoslash va tekshirishdir. Har qanday didaktik tizim muayyan shartlar bajarilgan taqdirda muvaffaqiyatli ishlaydi va rivojlanadi. "Shart" tushunchasining etimologiyasi quyidagicha talqin qilinadi: - biror narsaga bog'liq bo'lgan holat; - hayot yoki faoliyatning ayrim sohasida belgilangan qoidalar; - biror narsa sodir bo'ladigan muhit.

Bo'lajak muhandis-metrologlarni amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim sharoitida metapredmet kompetentlikni rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari aniqlandi: amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim mazmunini takomillashtirish va uning amaliy

ahamiyatini kuchaytirish; ta'lim jarayonini modulli asosda tashkil etish va Davlat ta'lim standartlari hamda ish beruvchilarning aniq talablariga mos ravishda kichik o'quv kurslarini joriy qilish; faol va interaktiv ta'lim metodlarini keng joriy qilish, muammoli vaziyatlar, kasbiy keys-stadi tahlili, amaliy tizimli topshiriqlar, ishlab chiqarish jarayonlari simulyasiyasi, guruhlarda loyihalashtirish va debatlar, dialog; zamonaviy o'lchash asboblari, metrologik standartlar va sifat nazorati vositalari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish; kasbiy motivatsiya va ijobiy munosabatni shakllantirish. ishlab chiqarish korxonalarida amaliy stajirovkalar, malakali mutaxassislar bilan uchrashuvlar, kasbiy loyihalarni amalga oshirish; amaliy kasbiy faoliyatini modellashtirish, modellashtirish jarayoni o'quv laboratoriyalari, virtual trenajyorlar va ishlab chiqarishdan olingan hayotiy vazifalar asosida amalga oshirish; ta'lim muassasasi va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi strategik hamkorlikni ta'minlash va hamkorlik orqali bo'lajak muhandis-metrologlarning ishlab chiqarishda amaliyot o'tash jarayoni tizimli tashkil etiladi, ish beruvchilar ta'lim jarayoniga bevosita jalb etiladi va bitiruvchilarning mehnat bozorida raqobatbardoshligi ta'minlash; pedagogik loyihalashtirishning resurs va metodik ta'minotini mustahkamlash. Mazkur pedagogik shart-sharoitlar tizimi amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim sharoitida bo'lajak muhandis-metrologlarda metapredmet kompetentlikni rivojlantirishning ilmiy-nazariy va amaliy asosini ta'minlaydi. Ularning izchil va uyg'un qo'llanilishi bo'lajak muhandis-metrologlarning kasbiy tayyorgarligi va intellektual salohiyatini yangi bosqichga ko'taradi.

Dissertatsiyaning **“Amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim sharoitida bo'lajak muhandis-metrologlarning metapredmet kompetentligini rivojlantirish metodikasi”** deb nomlangan uchinchi bobida amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim sharoitida bo'lajak muhandis-metrologlarni metapredmet kompetentligini rivojlantirishning shakl va vositalari, bo'lajak muhandis-metrologlarning metapredmet kompetentligini rivojlantirishning o'quv-metodik ta'minoti va modeli hamda amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida bo'lajak muhandis-metrologlarning metapredmet kompetentligini rivojlantirish metodikasi keltirilgan.

Oliy ta'limda sanoat sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash masalasi ham dolzarb masalalardan biridir. Shuni ta'kidlash joizki, sanoat iqtisodiyotimizning asosiy tarmoqlaridan biri bo'lganligi sababli shu sohada faoliyat ko'rsatuvchi mutaxassislardan doimiy izlanishlar olib borish, ishlab chiqarishni tashkil qilishning ilg'or usullarini tatbiq etish, zamonaviy o'lchov uskunalarini to'g'ri tanlash va amalda qo'llash, diagnostik ravishda qo'yilgan o'quv maqsadi, unga erishish yo'li va uni o'quv natijalarini tekshirish, takomillashtirishga doir ishlarni bajarishlarini talab etadi. Bu, o'z navbatida, mutaxassislar tayyorlash jarayonini ish beruvchi talablari asosida takomillashtirish, kasbiy standartlarni va malaka talablarini ishlab chiqish hamda o'qitish materiallari bilan ta'minlash, innovasion ta'lim texnologiyalarini qo'llash mehnat bozori talablariga tez moslashuvchan ta'lim dasturlarini yaratishni talab etadi. Shu sababli ta'lim jarayonini amaliy muhit bilan uyg'unlashtirish, o'quv jarayonini tashkil etishda, ta'limning samarali usullarini tanlashda, ta'lim mazmunini belgilashda chuqur ilmiy tahlil o'tkazish muhim ahamiyatga egadir.

Malaka talablari asosida o'quv fanlarning mazmunini takomillashtirishda asosiy va qo'shimcha malumotlarni aniq belgilagan holda o'quv materialini oqilona

tanlashdan iborat. Ilmiy izlanishlar asosida bo'lajak muhandis-metrologlarining mutaxassis darajasiga erishishida auditoriya mashg'ulotlari va mustaqil ta'limda o'zlashtirishi lozim bo'lgan umumkasbiy fanlaridan bilim va ko'nikmalar, ularni shakllantirish metodikasi, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy sifatlar va kasbiy bilimdonlik hamda amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim sharoitida ularning metapredmet kompetentligini rivojlantirish asosida kasbiy kompetentlikning, ya'ni yetuk va malakali muhandis-metrolog kadrlarni tayyorlashning mantiqiy tuzilmasi aniqlandi.

Bo'lajak muhandis-metrologlarning amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim muhitida metapredmetli kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiladigan takomillashtirilgan metodik model ishlab chiqildi (3-rasmga qarang).

Texnika yo'nalishi oliy ta'lim muassasalarida umumkasbiy fanlarini o'qitish jarayonida bo'lajak muhandis-metrologlarining metapredmetli kompetentligini rivojlantirish modeli kompetensiyaviy, amaliyotga yo'naltirilgan, integrativ, faoliyatli, muhitli, metapredmetli yondoshuvlar asosida yaratilgan.

Modelning asosi sifatida esa shaxsiy-motivasion, tashkiliy metodik va moddiy-texnik didaktik shartlarni bajarishda amalga oshiriladigan uzluksizlik, tizimlilik, fundamentallik va amaliy yo'nalganlik, tejamkorlik, metapredmetli kabi tamoyillar xizmat qiladi.

Model jarayon elementlarining tizimli tarkibini va xususiyatlarini aks ettiradi bo'lajak muhandis-metrologlarning metapredmet kompetentligini rivojlantirishning paradigma (namuna) vazifasini bajaradi.


Malaka talablari asosida bo'lajak muhandis-metrologlarning metapredmet kompetentligini rivojlantirishda "Tanlov fanlar" blokidagi fanlarning ahamiyati, ayniqsa, katta. Chunki ushbu blokni tashkil etuvchi fanlar ta'lim yo'nalishini chuqur o'rganishga yo'naltirilgan.

Maqsadli blok bo'lajak muhandis-metrologlarning metapredmet kompetentligini rivojlantirishni ta'minlaydigan pedagogik faoliyatning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi. Metrologiya, standartlashtirish va sifat menejmetni ta'lim yo'nalishini malaka talablarini bajarish maqsadini o'z ichiga oladi.

Amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim muhiti asosida metrologiya, standartlashtirish va sifat menejmenti ta'limi o'qituvchilarining metapredmetli kompetentligini rivojlanish uchun faoliyat turlariga muvofiq kasbiy vazifalarni aks ettiradi. Metrologiya, standartlashtirish va sifat menejmetni ta'lim yo'nalishi bo'lajak muhandis-metrologlar uchun amaliy faoliyat uchun metapredmet kompetensiyalar zarur bo'lib, ular muhandis-metrologlarning metrologik, konstruktorlik, loyihalash, ilmiy-tadqiqot, tashkiliy-boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Maqsad didaktik tizimda bo'lajak muhandis-metrologlarning kasbiy muhim sifatlarini – kasbiy intellektual sifat, kasbiy mahorat, individual-psixologik sifatlar va metapredmetli kompetentlikni bosqichma-bosqich rivojlantirish maqsadga muvofiq. Ta'limning shakl, metod va vositalari modelning prosessual blokida bo'lajak muhandis-metrologlarning metapredmetli kompetentligini rivojlantirishda amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari va innovasion ta'lim metodlari aks ettirilgan.

Modelning samaradorligi murakkab didaktik omillarni etiborga olish bilan ta'minlanadi: umumkasbiy fanlarni mazmunini integrativ xususiyatga ega ekanligini etiborga olish; - bo'lajak muhandis-metrologlarning ta'limiy va ijodiy faoliyatga



3-rasm. Amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim sharoitida bo'lajak muhandis-metrologlarning metapredmet kompetentligini rivojlantirish modeli

barqaror qiziqishni shakllantirishni hisobga olgan holda, ta'lim sifatini oshirish uchun modullari ko'rinishidagi o'quv jarayoni modelidan foydalanish va uni bosqichma-bosqich amalga oshirish; - bo'lajak muhandis-metrologlarning metapredmet kompetentligini rivojlantirishda o'quv materialini amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim birligiga etibor berish; - bo'lajak muhandis-metrologlarning individual va xamkorlikda ishlashini tashkil etish; - bo'lajak muhandis-metrologlarni amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim faoliyatiga keng jalb etishda zamonaviy didaktik vositalardan adekvat foydalanish.

Amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari quyidagilarni o'z ichiga oladi: axborot va kompyuter texnologiyalari, individual va hamkorlikka asoslangan amaliy tizimli topshiriqlar, individual tizimli masalalar, algoritimli testlar, o'yinli kazus va keyslar, kontekstli hamda amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari.


Amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini joriy etishning dolzarbligi shundan iboratki, bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari yuqori malakali, amaliyotda mustaqil qaror qabul qila oladigan mutaxassislarni talab qilishi, kadrlar tayyorgarligini mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiq ravishda ta'minlashi, faqat nazariy bilim emas, balki amaliy ko'nikma, ijodkorlik va metakompetensiyalarni rivojlantirish, talabalar real ishlab chiqarish jarayonlari va hodisalarini modellash orqali mutaxassis sifatida rivojlanishi.

Amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari orqali oliy ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari hamkorligi kuchayadi, talabalarni ish joyida tayyorlash va ish beruvchi uchun zarur malakalarni rivojlantirish imkonini beradi. An'anaviy ma'ruza va seminarlardan farqli o'laroq, keyc, klaster, proyekt, simulyasiya, kontekstli o'qitish kabi usullar joriy etiladi. Bu jarayonda talabalar ob'ekt emas, balki faol sub'ektg aylanadi.

Amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari talabalarning mustaqil izlanish, jamoaviy ishlash, kreativ fikr yuritish, muammoli vaziyatlarda yechim topish kabi ko'nikmalarini shakllantiradi. Bunday tajribada ularning kelgusidagi kasbiy ijtimoiylashuvini osonlashtiradi. Amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim sharoitida har qanday fan bo'yicha o'qitish usullarini ishlab chiqishda o'quv jarayonining barcha elementlari - maqsadlari, mazmuni, usullari, vositalari va shakllari - tizimli ravishda loyihalashtirilishi zarur. Bu esa turli pedagogik texnologiyalarning o'zaro uyg'un va maqsadli qo'llanishini ta'minlaydi. Aynan ushbu ikki yo'nalishning uyg'unligi amaliyotga yo'naltirilgan ta'limda kelgusidagi mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini yuqori darajada ta'minlaydi.


Amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari tarkibiga kiruvchi Kayzen ta'lim texnologiyalari bo'lajak muhandis-metrologlarning metapredmet kompetentligini rivojlantirishda zarur ahamiyatga ega. Kayzen ta'lim texnologiyasi – bu bosqichma-bosqich oddiydan murakkab tomon uzluksiz, tizimli, amaliy, individual, metapredmetli topshiriq va loyihalarni rejalashtirish va amalga oshirish jarayonida kompetensiyalarni rivojlantiradigan algoritimli o'quv tizimi hisoblanadi.

Kayzen texnologiyasi har doim talabalarning (individual, juft va guruh) faol mustaqil ishlariga yo'naltirilgan. Amaliyotga yo'naltirilgan ta'limning asosiy mohiyati – zamonaviy amaliy-kasbiy muammolarni hal qilishga qodir, doimiy o'zini uzluksiz takomillashtirishga tayyor va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassisni tayyorlashdan iboratdir.



4-rasm. Umumkasbiy fanlarni o'qitishda amaliyotga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etish

Ta'lim va tarbiya jarayonida bo'lajak muhandis-metrologlarning umumkasbiy fanlar bo'yicha o'quv materialini amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim sharoitida mustaqil o'rganish malakasini rivojlantirish jarayoni o'qituvchi tomonidan maqsadli tashkil etiladi va uning nazorati ostida amalga oshiriladi.



5-rasm. Bo'lajak muhandis-metrologining metapredmet kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi

Birinchi bosqich (variativ rivojlanish bosqichi) yangi bilimlarni o'zlashtirishga diqqatni jalb etish, motivatsiyani oshirish hisobiga yangi bilimlarni o'zlashtirishning boshlang'ich bosqichida "Talaba-talaba" o'zaro ta'sirlashuvini ko'zda tutadi. Ikkinchi bosqich (faol o'qitish bosqichi)da fikrlashning rasional apparatini qo'llash (o'qituvchi tomonidan "o'qituvchi-talaba" ko'rinishidagi o'zaro ta'sirlashuv shakllanadi. Umumkasbiy fanlar (Standartlashtirish asoslari) bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishda ma'ruza, amaliy bo'lajak muhandis-metrologlar mustaqil ishi kabi shakllardan foydalanildi.

Tadqiqot davomida bo'lajak muhandis-metrologlarning metapredmet kompetentligini rivojlantirish maqsadida umumkasbiy fanlarni (Standartlashtirish asoslari) o'qitish jarayonida quyidagi interfaol o'qitish texnologiya va metodlaridan foydalanildi (5-rasmga qarang).

"Brainstorming" (ing. brain – "aql", storm – "dovul") – metodi jamoaviy fikr generatsiyasi usulidir, bo'lajak muhandis-metrologlarda o'qituvchi murabbiy tomonidan taqdim etilgan topshiriqlarni innovatsion pedagogik texnologiya sifatida, kognitiv faollikni oshirishda, divergent fikrlashni shakllantirish va kollaborativ muhitda ijodiy yechimlarni topishga xizmat qiladi.

Birinchi bosqich (variativ rivojlanish bosqichi) yangi bilimlarni o'zlashtirishga diqqatni jalb etish, motivatsiyani oshirish hisobiga yangi bilimlarni o'zlashtirishning boshlang'ich bosqichida "Talaba-talaba" o'zaro ta'sirlashuvini ko'zda tutadi. Ikkinchi bosqich (faol o'qitish bosqichi)da fikrlashning rasional apparatini qo'llash (o'qituvchi tomonidan "o'qituvchi-talaba" ko'rinishidagi o'zaro ta'sirlashuv shakllanadi. Umumkasbiy fanlar (Standartlashtirish asoslari) bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishda ma'ruza, amaliy bo'lajak muhandis-metrologlar mustaqil ishi kabi shakllardan foydalanildi.

Tadqiqot davomida bo'lajak muhandis-metrologlarning metapredmet kompetentligini rivojlantirish maqsadida umumkasbiy fanlarni (Standartlashtirish asoslari) o'qitish jarayonida quyidagi interfaol o'qitish texnologiya va metodlaridan foydalanildi (5-rasmga qarang).

"Brainstorming" (ing. brain – "aql", storm – "dovul") – metodi jamoaviy fikr generatsiyasi usulidir, bo'lajak muhandis-metrologlarda o'qituvchi murabbiy tomonidan taqdim etilgan topshiriqlarni innovatsion pedagogik texnologiya sifatida, kognitiv faollikni oshirishda, divergent fikrlashni shakllantirish va kollaborativ muhitda ijodiy yechimlarni topishga xizmat qiladi.

"Loyiha metodi" (lot. "projectus" so'zidan olingan, "oldinga tashlangan", "oldindan rejalashtirilgan ish") – asosan ta'lim jarayonida talabalarni amaliy faoliyat orqali bilim olishiga yo'naltirish, "talaba – o'quv vazifasi – amaliyot yechimi" o'rtasidagi uzviy bog'lanishni ta'minlaydigan, ta'limni faqat bilim olish emas, balki bilimni qo'llash jarayoniga aylantiradigan metodologiyadir qolaversa metod ta'limni individuallashtirishni, talabalar o'z bilimlarini erkin namoyon etishlari uchun qulay sharoit yaratishni va o'z faoliyatlarini baholash imkoniyatini berishni ta'minlaydi.

"5-S" ("Seiri", "Seiton", "Seiso", "Seiketsu", "Shitsuke") - metodi asosan amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim sharoitida metapredmet kompetensiyalarni rivojlantirishda samarali qo'llaniladi, odatda, bunday mashg'ulot talabalarni kichik guruhlariga ajratgan holda o'tkaziladi.

“5-Nimaga” (ing. “5 Whys”) va “1-Qanday”? – metodi muammoning asl ildiz sabablarini aniqlashga qaratilgan tahliliy usul hisoblanadi va “1-Qanday” esa muammoni hal qilishning ilk va eng muhim qadamini aniqlashga yo‘naltirilgan. Shuningdek quyidagi ta’lim texnologiyalari qo‘llanildi.

“Baliq suyaklari” diagrammasi (yoki Ishikava diagrammasi) – metodi muammoni tizimli tahlil qilish, uning asl sabablarini aniqlash va yechimini topish jarayonini vizual shaklda ifodalashga xizmat qiladigan analitik vositadir.

“Lean” (ing. lean – “soddalashtirilgan” yoki “yumshoq fikrlash”) – texnologiyasi ta’lim jarayonida mantiqiy va mustaqil fikrlashga, o‘z fikrlarini erkin bayon etishga hamda ularda dalil keltirish orqali fikrlarni himoya qilish, taqdim etilgan mavzu doirasida predmetli materialni (topshiriqlarni) sistematik hamda vaqtini va o‘quv resurslarini optimallashtirishga yo‘naltirilgan innovasion metodologiya hisoblanadi.

“Kaizen” – metodologiyasi doimiy yaxshilanish va uzluksiz takomillashuvga qaratilgan yapon boshqaruv falsafasidir. Atama yaponcha (*kai* – “o‘zgarish” va *zen* – “yaxshilikka”) so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, lug‘aviy jihatdan “yaxshilash”, “uzluksiz o‘zgarish” ma’nosini anglatadi. Pedagogik jarayonda bu yondashuv bo‘lajak muhandis-metrologlarning ta’lim va amaliyot jarayonlaridagi shaxsiy rivojlanish traektoriyasini belgilaydi, ularda mantiqiy va tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarga ijodiy yechim topish va amalda qo‘llash, innovasion g‘oyalarni amalga joriy etish kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Kredit-modul tizimi bo‘yicha o‘qitish har bir modulning tarkibiy mazmuniga ega bo‘lgan o‘quv materialining (modullarning) mantiqiy to‘ldirilgan qismlaridan iborat bo‘lgan oldindan ishlab chiqilgan modul dasturi bo‘yicha o‘quv materialini talabalar tomonidan o‘zlashtirishni tashkil etishni nazarda tutadi. Unda birinchi navbatda, avtodidaktik ta’lim faoliyatida o‘zini-o‘zi rivojlantirish muammosini hal qilishga yo‘naltirilgan. O‘zini-o‘zi rivojlantirish faoliyati mustaqil ravishda tashkil etishga imkon beradigan maqsadli, ongli harakatlar majmui tushuniladi: motiv, maqsad, mazmun, amaliy-faoliyat, natija, refleksiya.

Ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarning ko‘proq pedagogik ongning nazariy bilimlari va amaliy kompetensiyalarni darajasini rivojlantirishga yo‘naltirilganligi bo‘lsa ularning metapredmet kompetensiyalarni rivojlantirishda mustaqil ta’lim muhim o‘rin tutadi. Mustaqil ta’lim jarayonida bo‘lajak muhandis-metrologlarning metapredmet kompetentligini rivojlantirishda o‘lchov asboblari bilan ishlash, metrologiya dasturlari doirasida o‘lchov jarayonlarini optimallashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va sifat kafolatini ta’minlash bilan bog‘liq tizimli topshiriqlarni quyidagi turlarga ajratish mumkin: - intellektual rejani tuzish; - obyekt konstruksiyasi chizmalarini bajarish; - hisoblash texnikasi va boshqa texnik vositalar va tizimlardan foydalanish; metrologik ma’lumotlar bazasida vazifalarni bajarishda axborotni oqilona izlash va ulardan foydalanish. Mustaqil ta’lim jarayonida bo‘lajak muhandis-metrologlarni kasbiy muhim sifatlarini rivojlantirishning intellektual tizimi, ya’ni dasturlashtirilgan ko‘makchi kompyuterli tizim ishlab chiqilgan.

Bulajak muhandis-metrologlarni individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, ochiq tizimda, avtomatlashtirilgan boshqaruv vositasida, mustaqil, individual,

jamoaviy va masofaviy shakllarda shaxsning kamolotiga yo'naltirilgan, aniq maqsadlarga qaratilgan ta'lim jarayonini amalga oshirish imkononi beradi.

Tadqiqot ishi doirasida oliy ta'lim samaradorligini oshirish bo'lajak muhandis-metrologlarda metapredmet kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiladigan didaktik vosita sifatida "Standartlashtirish asoslari" nomli dasturlashtirilgan ko'makchi kompyuterli tizim ishlab chiqildi.

Dasturlashtirilgan ko'makchi kompyuterli tizim asosan barcha ta'lim sohalarida ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi kadrlarning o'quv va ilmiy salohiyatini oshirishda ko'proq qo'llaniladi. Fanlarni o'rganishning intellektual tizimining asosi bo'lib bilimlar bazasi hisoblanadi. Har bir modul bo'yicha bilimlar bazasi o'z navbatida o'zaro bog'langan bir necha ma'lumotlar (elementlar) bazasidan iborat bo'ladi va har biri o'qitilayotgan modulning ma'lum bir qismlarini tashkil etadi: "Metanazariya", "Amaliy muhit", "Stend". Ta'lim metodlari haqidagi bilimlar "Ma'lumot" bazasida yig'ilib boradi, bu bazada o'quv fanining barcha bo'limlari bo'yicha didaktik materiallar, xususan mavzuga tegishli jadvallar, asosiy formulalar, sxemalar, metakartalar, doimiyliklar, texnik-kattaliklar, texnik ma'lumotlar va belgilarini o'z ichiga oladi. Bunda ham nazariy, amaliy, stend, test, internet kabi qismlar bilan bog'lanish imkoniyati mavjud bo'lib ular tasniflangan va tartibli tarzda, ta'lim metodlariga mos ravishda namoyon bo'ladi. Test (amaliy) – mavzu bo'yicha bo'lajak muhandis-metrologlar o'zlashtirishini nazorat qilish uchun amaliy savollar to'plami (meta topshiriqlar) va natijalar ko'rsatkichini o'z ichiga oladi. Testning oxirida talabalar javob bera olmagan test savolining mavzularini ko'rsatib beradi.

Ushbu dasturiy tizimda bo'lajak muhandis-metrologlar o'zlashtira olmagan nazariy ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishi va mustaqil o'rganishi mumkin. Test nazorati har bir mavzudan keyin yoki bob oxirida o'tkaziladi. Amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim asosida metapredmet kompetentligini rivojlantirishda dasturiy tizimni ta'lim jarayoniga tatbiq etish samarali natijalarga erishishga imkon berdi.

Bo'lajak muhandis-metrologlarning metapredmet kompetentligini baholash quyidagi mezonlar asosida olib borildi: qadriyatli, faoliyatli va shaxsiy refleksiv. Tayyorgarlik darajalari: Amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim sharoitida bo'lajak muhandis-metrologlarining metapredmet kompetentligini rivojlantirishda yuqori, o'rta va past darajalar orqali quyidagicha baholandi:

Yuqori daraja:- Innovasion fikrlash: Bo'lajak muhandis-metrologlar yangi g'oyalar va yechimlar ishlab chiqishda faol ishtirok etadilar. Ular murakkab muammolarni hal qilishda ijodkorlik ko'rsatadilar.

O'rta daraja:- Tahliliy fikrlash: Bo'lajak muhandis-metrologlar ma'lumotlarni tahlil qilish, muammolarni aniqlash va yechimlarni ishlab chiqish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Past daraja: - Asosiy bilimlar: Bo'lajak muhandis-metrologlar metrologiya asoslari va nazariy bilimlarga ega, ammo amaliyotda bu bilimlarni qo'llashda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

Yaratilgan modelning ushbu komponentlari kompleks o'zaro ta'sirlashuvi amaliyotga yo'naltirilgan sharoitda texnika yo'nalishi oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bo'lajak muhandis-metrologlarining umumkasbiy fanlar bo'yicha metapredmet kompetentligini rivojlantirishni ta'minlaydi.

Dissertatsiyaning “Amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim sharoitida bo‘lajak muhandis-metrologlarning metapredmet kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha tajriba-sinov natijalari” deb nomlangan to‘rtinchi bobida amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida bo‘lajak muhandis-metrologlarning metapredmet kompetentligi rivojlanganligini aniqlash mezon va ko‘rsatkichlari, tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o‘tkazish mazmuni natijalar tahlili yoritilgan va ularning samaradorligi asoslangan.

Biz texnika oliy ta’lim muassasalarining 60711300-Metrologiya standartlashtirish va sifat menejmenti” ta’lim yo‘nalishi bo‘lajak muhandis-metrologlarining standartlashtirishga oid tizimli amaliy topshiriqlarni bajarish va amaliy masalalarni yechish ishlarini quyidagi darajalarga ajratdik: past daraja:

1-daraja – juda oddiy kasbiy topshiriqlar; qiyinligi kichik kasbiy topshiriqlar; o‘rta daraja: 2-daraja – qiyinligi o‘rtacha kasbiy topshiriqlar; yuqori daraja: 3-daraja – qiyin kasbiy topshiriqlar;

Tajriba-sinov ishlari Farg‘ona politexnika instituti, Jizzax politexnika instituti va Andijon mashinasozlik institutining 60711300 - “Metrologiya, standartlashtirish va sifat menejmenti” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan bo‘lajak muhandis-metrologlarning metapredmet kompetentligini rivojlantirish jarayoniga tadbqiq etildi. Ushbu tadqiqot 2022–2025 yillar mobaynida amalga oshirildi va unda jami 552 nafar talaba ishtirok etdi (1-jadvalga qarang).

1-jadval


Tajriba-sinov o‘tkazilgan oliy ta’lim muassasalari bo‘yicha umumiy natijalar

Ta’lim muassasa nomi	Ko‘rsatkichi	Tajriba-sinov guruhlarida				Nazorat guruhlarida			
		Tajriba boshida 280 nafar talaba	%	Tajriba oxirida 280 nafar talaba	%	Tajriba boshida 272 nafar talaba	%	Tajriba oxirida 272 nafar talaba	%
Barcha OTMLari da	Yuqori	36	12,9	73	26,1	32	11,8	36	13,2
	O‘rta	75	26,8	129	46,1	76	27,9	79	29,0
	past	169	60,4	78	27,9	164	60,3	157	57,7

Biz tajriba-sinov natijalarining haqqoniyligini ta’minlash uchun matematik-statistik usuldan, ya’ni K.Pirson tomonidan taklif etilgan “Xi kvadrat” (χ^2) mezonidan foydalandik. Barcha tajriba-sinov maydonchalarida olib borilgan pedagogik tajriba-sinov ishlarining yakuniy bosqichida bo‘lajak muhandis-metrologlarning kasbiy tayyorgarligini baholash ko‘rsatkichlari 3-jadvalda keltirilgan bo‘lib, matematik-statistik ishlov berish materiali bo‘lib xizmat qildi.

Nazorat va tajriba guruhlaridagi bo‘lajak muhandis-metrologlarning barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha umumiy natijalari quyidagicha bo‘ldi: Tajriba guruhlarida tajriba boshida 12,9% (36 nafar) talaba yuqori baho olgan bo‘lsa, nazorat guruhlarida tajriba boshida 11,8% (32 nafar) talaba yuqori baho olgan, tajriba oxirida tajriba

guruhlarida 26,1% (73 nafar) talaba yuqori baho olib, 13,2% ga ortganligini, nazorat guruhlarida esa 13,2% (36 nafar) talaba yuqori baho olib 1,4% ga ortganligini ko'rishimiz mumkin; tajriba guruhlarida tajriba boshida 26,8% (75 nafar) talaba o'rta baho olgan bo'lsa, nazorat guruhlarida tajriba boshida 27,9% (76 nafar) talaba o'rta baho olgan, tajriba oxirida tajriba guruhlarida 46,1% (129 nafar) talaba o'rta baho olib 12,3% ga ortganligini, nazorat guruhlarida esa 29,0% (79 nafar) talaba o'rta baho olib 1,1% ga ortganligini ko'rishimiz mumkin; tajriba guruhlarida tajriba boshida 60,4% (169 nafar) talaba past baho olgan bo'lsa, nazorat guruhlarida tajriba boshida 60,3% (164 nafar) talaba past baho olgan, tajriba oxirida tajriba guruhlarida 27,9% (78 nafar) talaba past baho olib 32,5% ga kamayganligini, nazorat guruhlarida esa 57,7% (157 nafar) talaba past baho olib 2,6% ga kamayganligini ko'rishimiz mumkin (6-rasmga qarang).



6-rasm. Tajriba-sinov o'tkazilgan oliy ta'lim muassasalari bo'yicha umumiy natijalar diagrammasi

Tajriba-sinov ishi diagrammada o'z aksini topgan va o'z pedagogik natijalarni ko'rsatdi. Qo'llanilgan metodikaning samaradorligi, universalligi va barqarorligini isbotladi.

Tajriba sinov ishlari Farg'ona politexnika instituti, Jizzax politexnika instituti va Andijon mashinasozlik institutlarining "60711300 - Metrologiya, standartlashtirish va sifat menejmenti" ta'lim yo'nalishi bo'lajak muhandis-metrologlarining metapredmet kompetentligini rivojlantirish jarayoniga tadbqiq etildi.

Tajriba-sinov ish jarayonida olingan natijalar bo'lajak muhandis-metrologlarni metapredmetli kompetentligini rivojlantirish modelining ishlashi uchun ushbu ishda nazariy jihatdan asoslanganligini isbotladi (2-jadvalga qarang).

Tadqiqotimiz natijasida, barcha tajriba-sinov maydonchalari sifatida tanlab olingan ta'lim muassasalarida, tajriba guruhidagi bo'lajak muhandis-metrologlarni metapredmetli kompetentligini rivojlanganlik darajalarining samaradorlik ko'rsatkichi 1,12 barobarga, o'rtacha o'zlashtirish koeffitsiyenti 14,2% ga yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu esa olib borilgan tadqiqot ishining samarali ekanligini ko'rsatadi.

Miqdoriy mezonlar ko'rsatkichlari

№	Ko'rsatkichlar	Tajriba boshida		Tajriba oxirida	
		Tajriba-sinov guruhi m=280	Nazorat guruhi n=272	Tajriba-sinov guruhi m=280	Nazorat guruhi n=272
1	O'rtacha arifmetik qiymat	3.52	3,51	3,98	3,55
2	Samaradorlik ko'rsatkichi	1.0		1,12	
3	O'rtacha qiymat ishonch oralig'i	[3,37;3,68]	[3,37;3,65]	[3,83;4,13]	[3,41;3,69]
4	O'rtacha qiymat standart xatolik	0,711	0,698	0,734	0,715
5	Styudent statistikasi (T)	0,24 (0,24<3,4)		9,54 (9,54 >3,4)	
6	Ko'rsatkichlar xulosasi	N0 gipoteza rad etiladi		N1 gipoteza qabul qilinadi	

UMUMIY XULOSALAR

Oliy ta'limda amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim sharoitida bo'lajak muhandis-metrologlarni metapredmet kompetentligini rivojlantirishni metodikasi bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar quyidagi xulosalar qilish imkonini berdi:

